



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI



2023-yil yanvar-sentabr

BUXORO VILOYATINING DOIMIY AHOOLISI

2023- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Demografiya statistikasi – ijtimoiy-iqtisodiy statistikaning sohalaridan biri bo'lib, aholi soni, tarkibi, aholi yoki uning guruhlari joylashuvi va takror hosil bo'lishi bilan bog'liq ma'lumotlarni statistik usullardan foydalangan holda yig'ish, qayta ishslash, ifodalash va tahlil qilish faoliyati bilan shug'ullanadi;

Buxoro viloyatida 2023- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni 2034,8 ming kishini tashkil etib, yil boshigan 25,1 ming kishiga yoki 1,2 % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 750,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,9 %), qishloq aholisi soni 1 284,1 ming kishi (63,1 %)ni tashkil etdi.



Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turgan, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi;

Doimiy aholi soni

2034,8*ming
kishi*

Tabiiy o'sish

+27,7*ming
kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil 1- oktabr holatiga

Shahar

**36,9%**


Qishloq

**63,1%**


Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2023- yil 1- oktabr holatiga

Erkaklar


50,1%**1 020,3** *ming kishi*

Ayollar

49,9%**1 014,5** *ming kishi*


Buxoro viloyati hududlari bo'yicha doimiy aholi soni 2023- yil 1- oktabr holatiga

Hududlar kesimida doimiy aholi soni, ming kishi



Hududlar bo'yicha doimiy aholisi soni eng ko'p G'ijduvon tumanida **321,3** ming kishi, Buxoro shahrida **292,9** ming kishi, Shofirkon tumanida **186,0** ming kishi, eng kam aholi soni Qorovulbozor tumanida **19,8** ming kishi, Kogon shahrida **64,4** ming kishi va Kogon tumanida **84,0** ming kishini tashkil etgan.

Doimiy aholisi soni eng ko'p bo'lgan shahar/tumanlar



Doimiy aholisi soni eng ko'p G'ijduvon tumanida **321,3** ming kishi, Buxoro shahrida **292,9** ming kishi, Shofirkon tumanida **186,0** ming kishi Jondor tumanida esa **184,5** ming kishi va Buxoro tumanida **177,4** ming kishini tashkil etgan.

Doimiy aholisi soni eng kam bo'lgan shahar/tumanlar



Doimiy aholisi soni eng kam Qorovulbozor tumanida **19,8** ming kishi, Kogon shahrida **64,4** ming kishi, Kogon tumanida **84,0** ming kishi, Olot tumanida **104,0** ming kishi va Peshku tumanida esa **130,4** ming kishini tashkil etgan.

Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi 2023- yil holatiga



74,5 yosh


76,2 yosh

2023-yilning 1-yanvar holatiga Buxoro viloyati aholisining kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **75,4** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **74,5** yoshga, ayollar uchun esa **76,2** yoshga teng. Shahar va qishloq joylar uchun kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi bir xil, ya’ni **75,4** yoshni tashkil etgan.

Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi – tug‘ilgan (0 yoshdagi) insonlarning kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish yillari soni. Bunda ushbu ko‘rsatkich hisoblangan yildagi yoshlari bo‘yicha o‘lim darajasi saqlanib qoladi deb hisoblanadi;

Aholi sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil 1- oktabr holatiga




2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, viloyat doimiy aholisi sonining **29,5** % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **57,5** % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **13,0** % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni – Mehnat Kodeksiga muvofiq 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollardan tashkil topadi (16 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yosh va undan katta erkaklar hamda 55 yosh va undan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifalariga ajratiladi);

Buxoro viloyati bo'yicha aholi zichligi

2023- yil 1- oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



Buxoro viloyatida 2023- yil 1- oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha **50,6** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,8** kishiga ortgan (2022- yilda 1 kv.km.ga **49,8 kishi**).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichleginig eng yuqori ko'rsatkichi Buxoro shahrida **4 184,3** kishi, Kogon shahrida **3 220,0** kishi, Vobkent tumanida **510,3** kishi, Kogon tumanida **168,0** kishini, Buxoro tumanida **134,4** kishi tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Qorovulbozor tumanida **9,0** kishi, Peshku tumanida **15,0** kishi, Qorako'l tumanida **19,7** kishi, Olot tumanida **32,2** kishi, Jondor tumanida **35,7** kishi, Shofirkon tumanida **50,0** kishini tashkil etgan.

Aholi zichligi – muayyan hududdagi doimiy aholining umumiy sonini shu hudud maydoniga nisbati orqali aniqlanadi;

Buxoro viloyati hududlari bo'yicha qayd etilgan tug'ilishlar


2023- yil yanvar-sentabr

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti, kishi


Hududlar bo'yicha tug'ilish eng yuqori G'ijduvon tumanida **5 866** kishi, Buxoro shahrida **5 100** kishi, Shofirkon tumanida **2 818** kishi, eng kam ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **308** kishi, Kogon shahrida **960** kishi va Kogon tumanida **1 557** kishini tashkil etgan.


Tug'ilish koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan shahar/tumanlar


Tug'ilish koeffitsiyenti eng yuqori Vobkent tumanida **25,5** promille, Kogon tumanida **25,0** promille, G'ijduvon tumanida **24,6** promille, Buxoro shahrida **23,4** promille va Olot tumanida **22,7** promilleni tashkil etgan.

Tug'ilish koeffitsiyenti eng past bo'lgan shahar/tumanlar


Tug'ilish koeffitsiyenti eng kam tuman, shaharlardan Kogon shaharda **20,0** promille, Shofirkon tumanida **20,3** promille, Romitan tumanida **20,8** promille, Qorovulbozor tumanida **21,0** promille va Buxoro tumanida **21,1** promilleni tashkil etgan.

Buxoro viloyatida tirik tug‘ilganlar 2023- yil yanvar- sentabr



Jinslar kesimida taqsimlanishi

O‘g‘il bolalar



Qiz bolalar




Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar




Qishloq



2023- yil yanvar- sentabr oylarida tirik tug‘ilganlar soni 34,2 ming kishini tashkil etdi, shundan o‘g‘il bolalar soni 17,8 ming kishini, qiz bolalar soni 16,4 ming kishi, tug‘ilganlar soni shahar joylarida 14,2 ming kishini, qishloq joylarida 20,0 ming kishini tashkil etdi.

Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, kishi/ulushi

O‘g‘il bolalar




Qiz bolalar





Yanvar- mart



Yanvar- iyun




Yanvar- sentabr



Hisobot choragida eng ko‘p qayd etilgan tug‘ilishlar soni avgust oyida qayd etilgan 4 772 nafar bo‘lib, aksincha, eng kam tug‘ilishlar esa iyul oyida 4 488 nafar qayd etilgan.

Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi


2023- yil yanvar- sentabr



2023- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi: 1 nafar tug‘ilganlar **97,8 %** ni 2 nafar egizak tug‘ilganlar **2,2 %** ni 3 nafar va undan ortiq egizak tug‘ilganlar **0,02 %** ni tashkil etdi.

Ota-onasining yoshi bo‘yicha tug‘ilganlarning taqsimlanishi


2023- yil yanvar- sentabr



2023- yil yanvar-sentabr oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha **4,9 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **80,6 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **14,8 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha **80,8 %** chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **79,4 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **1,2 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.

Buxoro viloyati hududlari bo'yicha qayd etilgan o'limlar
2023- yil yanvar- sentabr

**Hududlar kesimida o'limlar soni
va koeffitsiyenti, kishi**



Hududlar bo'yicha vafot etishi eng yuqori Buxoro shahrida **1 109** kishi, G'ijduvon tumanida **989** kishi, Qorako'l tumatida **649** kishi va Shofirkon tumanida **633** kishi, eng kam ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **57** kishi, Kogon tumanida **236** kishi va Kogon shahrida **279** kishini tashkil etgan.

**O'lim koeffitsiyenti eng yuqori
bo'lgan shahar/tumanlar**




O'lim koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan Kogon shahrida **5,8** promille, Buxoro shahrida **5,1** promille, Qorako'l tumanida **5,1** promille, Shofirkon tumanida **4,6** promille va Olot tumanida **4,6** promilleni tashkil etgan.

**O'lim koeffitsiyenti eng past
bo'lgan shahar/tumanlar**



O'lim koeffitsiyenti eng kam bo'lgan Buxoro, Vobkent va Romitan tumanlarida **3,6** promille, Kogon tumanida **3,8** promille va Jondor tumanlarida **3,9** promilleni tashkil etgan.

Buxoro viloyati bo'yicha qayd etilgan o'limlar
2023- yil yanvar- sentabr



Jinslar kesimida taqsimlanishi

Erkaklar



3,6
ming kishi

Ayollar



2,9
ming kishi

Shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



46,2 %

3,0
ming kishi

Qishloq



53,8 %

3,5
ming kishi

2023- yil yanvar-sentabr oylarida vafot etganlar soni **6,5** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **3,6** ming kishini, ayollar soni **2,9** ming kishi, vafot etganlar soni shahar joylarida **3,0** ming kishini, qishloq joylarida **3,5** ming kishini tashkil etdi.

Oylar bo'yicha taqsimlanishi, kishi/ulushi

Erkaklar



56,0 %

1 221

Ayollar



44,0 %

960

Yanvar-iyun



54,8 %

2 295



45,2 %

1 890

Yanvar- sentabr



54,8 %

3 590



45,2 %



2 958

Hisobot choragida eng ko'p qayd etilgan vafot etganlar soni avgust oyida qayd etilgan **874** nafar bo'lib, aksincha, eng kam vafot etganlar esa sentabr oyida **624** nafar qayd etilgan.

O'limning asosiy sabablari bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar- sentabr, kishi


O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari;



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o'lim holating **65,4 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **10,3 %** i – o'simtalardan, **4,7 %** i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **4,8 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,2 %** i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **1,0 %** i – Yuqumli va parazitar kasalliklardan, **10,6 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

Buxoro viloyati hududlarida qayd etilgan nikohlar 2023- yil yanvar- sentabr

Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti, birlik



Hududlar bo'yicha nikohlar soni eng yuqori G'ijduvon tumanida **1 764** kishi, Buxoro shahrida **1 574** kishi, Shofirkon tumanida **1 008** kishi, eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **83** kishi, Kogon shahrida **249** kishi va Kogon tumanida **428** kishini tashkil etgan.

Nikoh koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan shahar/tumanlar



Nikoh koeffitsiyenti bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich G'ijduvon tumanida **7,4** promille, Shofirkon tumanida **7,3** promille, Buxoro shahrida **7,2** promille, Peshku tumanida **7,1** promille va Olot tumanida **7,0** promilleni tashkil etgan.



O'lim koeffitsiyenti eng past bo'lgan shahar/tumanlar



Nikoh koeffitsiyenti bo'yicha eng past ko'rsatkich Kogon shahrida **5,2** promille, Qorovulbozor tumanida **5,6** promille, Romitan tumanida **6,1** promille, Jondor tumanida **6,2** promille va Qorako'l tumanlarida **6,8** promilleni tashkil etgan.

Buxoro viloyatida qayd etilgan nikohlar

2023- yil yanvar- sentabr

**Yillar bo‘yicha taqsimlanishi,
ming birlik**

**O‘sish sur’ati,
% da**


2023- yil yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni 10,2 ming birlikni tashkil etib, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 birlikka kamaygan. Har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 6,8 promilleni tashkil etgan hamda o’tgan yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega kamayganligi kuzatildi.



**Shahar va qishloq joylar
bo‘yicha taqsimlanishi**
Shahar

4,6
ming birlik

Qishloq

5,6
ming birlik

2023- yil yanvar-sentabr oylarida nikoh qurbanlarning soni **10,2** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **4,6** mingtani (**45,1 %**), qishloq joylarida **5,6** mingtani (**54,9 %**) tashkil etdi.

**Oylar bo‘yicha taqsimlanishi,
birlik/ulushi**
Shahar

Qishloq

Yanvar- sentabr


Buxoro viloyati hududlari bo'yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar

2023- yil yanvar-sentabr

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti, birlik



Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlarning soni eng yuqori Buxoro shahrida **455** kishi, G'ijduvon tumanida **258** kishi, Shofirkon tumanida **154** kishi, eng kam ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **20** kishi, Peshku tumanida **82** kishi va Romitan tumanida **76** kishini tashkil etgan.

Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan shahar/tumanlar



Nikohdan ajralish koeffitsiyenti bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Buxoro shahrida **2,1** promille, Kogon tumanida **1,9** promille, Kogon shahrida **1,6** promille, Qorovulbozor tumanida **1,4** promille va Olot tumanlarida **1,2** promilleni tashkil etgan.


Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng past bo'lgan shahar/tumanlar




Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng past bo'lgan Romitan tumanida **0,7** promilleni, Peshku va Jondor tumanlarida **0,8** promilleni, Qorako'l tumanida **1,0** promilleni va Shofirkon tumanida **1,1** promilleni tashkil etgan.

Buxoro viloyati bo'yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar 2023- yil yanvar- sentabr

**Yillar bo'yicha taqsimlanishi,
ming birlik**




**O'sish sur'ati,
% da**




2023- yil yanvar-sentabr oylarida 1,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,1 promille kamayganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-sentabr oylarida 1,3 promille bo'lgan).

**Shahar va qishloq joylar
bo'yicha taqsimlanishi**



2023- yil yanvar-sentabr oylarida nikohdan ajralishlarni soni **1,9** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **1,1** mingtani, (**57,8 %**), qishloq joylarida **0,8** mingtani (**42,2 %**) tashkil etdi.


**Oylar bo'yicha taqsimlanishi,
birlik/ulushi**



Hisobot choragida eng ko'p qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni avgust oyida **230** nafar aksincha, eng kam nikohdan ajralishlar esa sentabr oyida **187** nafarni tashkil etgan.

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-sentabr



2023- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning **49,3** % i farzandsiz, **27,8** % i bitta farzand bilan va **22,9** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.


Nikohdan ajrashganlarning o'rtacha yoshi

Nikohdan ajrashganlarning o'rtacha yoshi 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida erkaklar uchun **36,0** yoshni, ayollar uchun **33,0** yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi **29** yoshlilarga to'g'ri kelgan, y'ani jami nikohdan ajrashganlarning **5,4** % ini tashkil etgan.

Buxoro viloyati bo'yicha jami ko'chib kelganlar

2023- yil yanvar-sentabr

Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti, kishi




Hududlar bo'yicha ko'chib kelish eng yuqori Buxoro shahrida **1 800** kishi, Buxoro tumanida **1 020** kishi va Kogon tumanida **633** kishi, eng kam ko'rsatkich Olot tumanida **103** kishi, Qorako'l tumanida **124** kishi va Peshku tumanida **158** kishini tashkil etgan.

Ko'chib kelish koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan shahar/tumanlar



Ko'chib kelish koeffitsiyenti eng yuqori Qorovulbozor tumani **18,0** promille, Kogon tumani **10,2** promille, Buxoro va Kogon shaharlarda **8,3** promille va Buxoro tumani **7,7** promilleni tashkil etgan.



Ko'chib kelish koeffitsiyenti eng past bo'lgan shahar/tumanlar



Ko'chib kelish koeffitsiyenti eng kam bo'lgan Qorako'l tumani **1,0** promille, Olot tumani **1,3** promille, Jondor tumani **1,4** promille va Peshku tumani **1,6** promilleni tashkil etgan.

Buxoro viloyati bo'yicha jami ko'chib kelganlar

2023- yil yanvar- sentabr

 Yillar bo'yicha taqsimlanishi,
ming kishi

 O'sish sur'ati,
% da


Jinslar kesimida taqsimlanishi

Erkaklar


38,3 %

 2,3
ming kishi

Ayollar


61,7 %

 3,7
ming kishi

 Shahar va qishloq joylar
bo'yicha taqsimlanishi

Shahar


58,3 %

 3,5
ming kishi

Qishloq


41,7 %

 2,5
ming kishi

2023- yil yanvar-sentabr oylarida ko'chib kelganlar soni **6,0** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **2,3** ming kishini, ayollar soni **3,7** ming kishi, ko'chib kelganlar soni shahar joylarida **3,5** ming kishini, qishloq joylarida **2,5** ming kishini tashkil etdi.

 Oylar bo'yicha taqsimlanishi,
kishi/ulushi

Erkaklar


37,3 %

692

Ayollar


62,7 %

1 163

Yanvar- mart



38,5 %

1 474



61,5 %

2 356

Yanvar- iyun



38,5 %

1 474



61,5 %

2 356

Yanvar- sentabr



38,3 %

2 318




61,7 %

3 711

Hisobot choragida eng ko'p qayd etilgan ko'chib kelganlar soni iyul oyida **804** nafar aksincha, eng kam ko'chib kelganlar esa sentabr oyida **684** nafarni tashkil qilgan.

Buxoro viloyati hududlari bo'yicha jami ko'chib ketganlar

2023- yil yanvar-sentabr

Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti, kishi


Hududlar bo'yicha ko'chib ketish eng yuqori Buxoro shahrida **2 060** kishi, G'ijduvon tumanida **1 203** kishi va Shofirkon tumanida **841** kishi, eng kam ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **186** kishi, Peshku tumanida **310** kishi va Romitan tumanida **317** kishini tashkil etgan.

Ko'chib ketish koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan shahar/tumanlar




Ko'chib ketish koeffitsiyenti eng yuqori Qorovulbozor tumani **12,7** promille, Buxoro shahri **9,5** promille, Kogon shahri **8,5** promille, Kogon tumanı **8,4** promille va Shofirkon tumanı **6,1** promilleni tashkil etgan.

Ko'chib ketish koeffitsiyenti eng past bo'lgan shahar/tumanlar


Ko'chib ketish koeffitsiyenti eng past Romitan tumani **2,8** promille, Peshku tumani **3,2** promille, Jondor tumani **3,4** promille, Olot tumani **4,2** promille va Vobkent tumani **4,6** promilleni tashkil etgan.

Buxoro viloyati hududlari bo'yicha jami ko'chib ketganlar

2023- yil yanvar- sentabr

**Yillar bo'yicha taqsimlanishi,
ming kishi**

**O'sish sur'ati,
% da**

Jinslar kesimida taqsimlanishi
Erkaklar

42,4 %
**3,6
ming kishi**
Ayollar

57,6 %
**5,0
ming kishi**
**Shahar va qishloq joylar
bo'yicha taqsimlanishi**
Shahar

51,8 %
**4,4
ming kishi**
Qishloq

48,2 %
**4,1
ming kishi**

2023- yil yanvar-sentabr oylarida ko'chib ketganlar soni **8,5** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **3,6** ming kishini, ayollar soni **5,0** ming kishi, ko'chib ketganlar soni shahar joylarida **4,4** ming kishini, qishloq joylarida **4,1** ming kishini tashkil etdi.

**Oylar bo'yicha taqsimlanishi,
kishi/ulushi**
Erkaklar

41,2 %
1 067
Ayollar

58,8 %
1 522
Yanvar- mart
Yanvar- iyun
Yanvar-sentabr
2 176
3 062
3 553
4 964

Hisobot choragida eng ko'p qayd etilgan ko'chib ketganlar soni iyul oyida **1 227** nafar aksincha, eng kam ko'chib ketganlar esa avgust oyida **1 115** nafarni tashkil etgan.

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

O‘lim sababları – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlari va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 71 230-83-16, 65 223-83-37